

II. GLOSSARIYA

- Elektromagnit maydon- elektr zaryadlarning o'zaro ta'siri bevosita amalga oshadigan fizik reallik, materiyaning alohida shakli.
- Zaryad- jismning elektromagnit o'zaro ta'sirlarida qatnasha olish darajasini ko'rsatuvchi miqdoriy kattalik
- Kulon qonuni-vakuumda ikki nuqtaviy elektr zaryadlarining o'zaro ta'sir kuchi zaryad miqdorlarining ko'paytmasiga to'g'ri proporsional va zaryadlar orasidagi masofaning kvadratiga teskari proporsional bo'ladi.
- (SI) birliklar- (SI-Systeme Internationale) fizik kattaliklarning asosiy va hosilaviy o'lchov birliklar tizimi.
- SGS birliklar- Nemis olimi Karl Fridrix Gauss tamonidan ishlab chiqilgan va Santimetr Gramm Soniya birliklariga asoslangan SGS (asosiy birliklarning bosh harflaridan olingan) tizim 1832 yilda xalqaro tizim sifatida fanga taklif etilgan edi. SGS tizimini mutloq tizim deb ham nomlashgan edi.
- Zaryadning hajmiy zichliklar- 1m^3 hajmda 1 Cl zaryad tekis taqsimlangandagi elektr zaryadning hajmiy zichligi.
- Elektr maydon energiyasi- elektr maydon kuchlanganligi bilan potensiali orasidagi bog'lanish
- Potensial- 1 kl zaryadni ko'chirishdagi bajargan ish.
- Elektrostatik maydon- agar zaryad harakatsiz bo'lsa maydonga elektrostatik maydon deyiladi.Elektrostatik maydon vaqt o'tishi bilan o'zgarmaydi va uni faqat elektr zaryadi vujudga keltiradi.
- Orientatsiyaviy yoki dipolli qutblanish- qutbli molekulalardan tashkil topgan dielektrik tashqi elektrostatik maydonga kiritilganda, tartibsiz yo'nalgan molekulalar dipol momentlarining maydon yo'nalishiga qarab burilishiga aytiladi.
- Maydon kuchlanganligi- unda joylashtirilgan birlik musbat zaryadga ta'sir etuvchi kuch bilan aniqlanadigan kattalikka aytiladi.
- O'tkazgichlar-o'zidan elektr toki o'tkazish qobilatiga ega bo'lgan jismlarga o'tkazgichlar deyiladi.
- Kondensator-lotincha so'zdan olingan bo'lib "condenso" zichlayman quyiltiraman degan ma'noni anglatadi. Kondensatorlar dielektrik bilan ajratilgan ikkita o'tkazgichdan (qoplamadan) iborat qurilma.
- Energiya- har qanday ko'rinishdagi materiya, xususan, jism yoki jismlar tizimini tashkil etuvchi zarralar harakatining hamda bu zarralarning o'zaro va boshqalar zarralar bilan ta'sirlarining miqdoriy o'lchovi.
- Dielektrik-erkin elektronlari mavjud bo'lmagan moddalarga aytiladi.

- Ekvipotensial sirt-bir xil potentsialli nuqtalar to'plamiga aytiladi.
- Vektor- ham yo'nalishga va son qiymatiga ega bo'lgan kattalikka vektor kattalik deyiladi
- Elektr o'tkazuvchanlik- tashqi elektr maydon ta'sirida moddada elektr zaryadlarning ko'chishini ifodalaydigan tushuncha; jismning elektr tokini o'tkazish xususiyati va bu xususiyatni miqdoran ifodalaydigan fizik kattalik.
- Elektr toki- zaryadli zarralarni maydon ta'sirida tartibli bir yo'nalishdagi harakatiga aytiladi
- Rezistor- lotincha so'zdan olingan bo'lib "resisto" qarshilik ko'rsataman degan ma'noni bildiradi asosiy vazifasi elektr toki ga faol qarshilik ko'rsatish.
- Temperature- lotincha so'zdan olingan bo'lib "temperature" zarur siljish, o'lchamdorlik, normal holat degan manoni bildiradi.
- Elektr yurituvchi kuch- Elektr yurituvchi kuch o'zgaruvchan yoki o'zgarmas tok energiya manbalarida tashqi (potensial) kuchlar ta'sirini ifodalaydigan kattalik.
- Kirxgofning birinchi qoidasi- Tugunga kirayotgan va undan chiqayotgan toklarning algebraik yig'indisi nolga teng.
- Kirxgofning ikkinchi qoidasi- Xar qanday yopiq konturdagi potentsiallar tushuvlarining algebraik yig'indisi shu konturdagi tok manbalari e.yu.k. larining algebraik yig'indisiga teng.
- Elektr o'tkazuvchanlik- tashqi elektr maydon ta'sirida moddada elektr zaryadlarining ko'chishini ifodalaydigan tushuncha.
- Termoelektron emissiya- o'tazgichlar, qattiq va ba'zan suyuq jismlardan issiqlik energiyasi ta'sirida elektronlarning vakum yoki boshqa muhitlarga chiqish hodisasi.
- Yarimo'tkazgich- O'tkazuvchanligi jihatidan metal va dielektriklar orasidagi moddalar bo'lib, o'z fizik xususiyatlarini turli tashqi ta'sirlar (masalan yoritish, isitish va hokazo) xususiyatiga ega.
- Magnit induksiya vektori -magnit maydonning asosiy tavsifi bo'lgan vektor, uning kattaligi va yo'nalishi magnit maydonning unda joylashtirilgan tokli o'tkazgichga ta'siri bilan aniqlanadi. Magnit induksiya alohida elektronlar va boshqa elementar zarralar hosil qilgan mikroskopik magnit maydon yig'indi kuchlanganligining o'rtacha qiymatini ifodalovchiasosiy tavsifi.